

BAHODIR YO'LDOSHEV

Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF "Dramatik teatri rejissorligi" 2-bosqich talabasi

sultonovdoston07@gmail.com,

Ravshanjon Zunnunov Polatovich

Ilmiy rahbar: O'zDSMI FMF o'qituvchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada taniqli Rejissor Bahodir Yo'ldoshev haqida qisqa ammo juda ham keratli ma'umotlar jamlangan

Kalit so'zlar: kino, rejissura, aktyor, film, drama, senariy, spektakl, sahna,

1974 yili yigirma sakkiz yoshli yigit O'zbekistonning eng nufuzli teatri - Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatriga bosh rejissyor etib tayinlaganida ko'pchilik bu holga xiylagina istehzo bilan qaragan edi. Chunki Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Obid Jalilov, Lutfulla Narzullaev, Toshxo'ja Xo'jaev kabi mashhur san'at arboblari ishlagan, Shukur Burhonov, Olim Xo'jaev, Sora Eshonto'raeva, Nabi Rahimov, Zaynab Sadrieva singari ulug' san'atkorlar faoliyat ko'rsatib turgan teatrga yosh bir yigitning bosh rejissyor bo'lib yetakchilik qilishi favqulodda bir hodisa edi. Ammo har qancha istehzo va hayrat uyg'otmasin, bu hol ro'y bergan, realikka aylangan edi. Taqdirning hikmatini qarangki, bu yigitning nomi bejiz Bahodir deb qo'yilmagan ekan San'aktorlik uning nasabida bor edi. Otasi Tursunboy Yo'ldoshev o'sha kezlari teatrdan sozanda bo'lib ishlagan, onasi Shirinxon Melieva esa aktrisa bo'lgan. Bahodir Yo'ldoshevning ijodiy kamolotida bu muhit hal qiluvchi omil bo'lgani aniq. Bahodir dunyoga kelgandan beri teatr bilan hamnafas. Tug'ilibdiki, teatrdan ko'krak emib, teatrdan tetepoya bo'lib, teatrdan ulg'aydi. Ayniqsa, uch yoshga to'lar-to'lmas onasi Shirin Melieva Kattaqo'rg'on teatriga direktor etib tayinlangach, yotar-turar joyi teatr bo'lib qoldi. Sekin-asta yosh bolalar obrazi bo'lgan spektakllarda rol ijro etish boshladi. O'sha kezlari Zinnat Fatxullinning "G'unchalar" pesasi ancha do'vruq qozongan edi. Shu asarda personajlardan biri go'dagini qutiga tashlab ketadi. Kattaqo'rg'on teatridagi spektaklda ana shu "tashlandiq bola" rolini Bahodir Yo'ldoshev ijro etdi. Uning ilk "rejissyor"ligi ham bolaligidan boshlangan. Bahodir akaning o'zi besh-olti yoshlarida jajji tomoshalar qo'rganini eslaydi. Ammo uning rejissura va aktyorlik bilan chinakamiga shug'ullanishi yettinchi sinflarda o'qib yurgan kezloriga to'g'ri keladi. Kattaqo'rg'on shahar "Madaniyat uyi" qoshida ochilgan teatr studiyasida ilk bor Mixail Lermontovning "Maskarad" she'riy dramasi sahnalashtirdi. O'sha kezlari Bahodirning "Maskarad"dan keyin fikr-xayolini band etgan va so'ngra butun umri davomida tark etmagan asar Shekspirning "Hamlet" tragediyasi bo'ldi. Oradan chamasi qirq yilcha vaqt o'tgach, Bahodir Yo'ldoshev "Hamlet"ga sadoqatini bunday ifodalagan edi: "Hamlet - mening do'stim. Men har tong uning yodi bilan uyg'onaman, u bilan birga dunyodan nafratlanaman va u bilan birga shu dunyoni sevaman" ("Dunyo nahot shunchalar go'zal!.." Naim Karimov bilan suhbat. "Tafakkur" Alalxusus, Hamlet va shu kabi murakkab obrazlar dunyosida o'zligini izlayotgan yigitcha maktabni tugatib, Toshkentga keladi. Teatr va rassomlik institutida O'zbekiston xalq artisti Toshxo'ja Xo'jaevdan saboq oladi. O'qish bilan birga Hamza nomidagi akademik teatrdan (hozirgi Milliy akademik teatr) rejissyor yordamchisi bo'lib ishlay boshlaydi. Ustozlarining "Oltin devor" (T.Xo'jaev), "Buxoro" (A.Ginzburg) spektakllarida assistentlik qiladi. 1970 yildan boshlab rejissyor sifatida faoliyat yuritadi. O'sha

kezlari akademik teatrning bosh rejissyori bo'lgan A.Ginzburg "Sening zavqu g'ayratga to'liq yoshliging mening tajribalarim bilan qo'shilsa, teatr uchun foydali nimadir chiqar" degan fikrda unga mustaqil ishlash uchun imkoniyat yaratadi. Bunday bag'rikenglikdan ruhlangan yosh rejissyor ketma-ket spektakllar sahnalashtirib, asta-sekin tilga tusha boshlaydi. 1974 yili ne-ne ulug'lar ishlagan va ishlab turgan otaxon teatrga bosh rejissyor etib tayinlanishining sababi ham undagi bilim va salohiyat edi. Bu katta ishonch edi. Ammo halol mehnat va yuksak iste'dod tufayli qozonilgan ishonch edi. Uning dastlabki samarasi Fridrix Shillerning "Qaroqchilar" pesasi asosidagi spektaklda namoyon bo'ldi. Chunki bu ayni o'tgan asrning 60-yillar adog'i - 70-yillar boshlarida teatrga kirib kelgan nihoyatda umidli va g'oyat iste'dodli bir avlodning dasturiy spektakli edi. Nohaqlik dunyosiga qarshi isyon ko'targan bosh qahramon Karl Moor ozod bir mamlakat barpo etishni orzu qiladi. Biroq nomarg'ub yo'llar bilan, talon-taroj, qaroqchilik usullari bilan yuksak niyatga erishib bo'lmaydi. Gunohlarini yuvmoqqa chog'langan qahramon oxir-oqibat fojiaga yuz tutadi. Sho'rolar saltanati butun dunyoga tahdid solib, erk va ozodlik g'oyalarini bo'g'ib turgan o'sha zamonda isyon ruhini, erksevarlik g'oyalarini targ'ib etish katta jasorat edi. Inchunun, kechagina bosh rejissyor bo'lgan Bahodir Yo'ldoshev yoki respublikaning bosh teatriga qabul qilingan uning maslakdoshlari - yosh aktyorlarning bunday jasorati "kechirilmaligi" ham mumkin edi. Ana shunday ijtimoiy vaziyatda "Qaroqchilar"ning sahnalashtirilishi katta hodisa bo'ldi. "Qaroqchilar"dan so'ng Bahodir Yo'ldoshev o'n yil davomida Hamza teatri va xorij teatr sahnalarida o'ttizga yaqin spektakllar qo'ydi. Bu asarlar o'z vaqtida turlicha talqin va baholarga sabab bo'ldi. E'tirof etildi, inkor qilindi. Olqish va tazyiqlarga uchradi. Biroq, nima bo'lganda ham, o'zbek teatr san'atining, bosh akademik milliy teatrimizning mavqei va nufuzini saqladi. Boshqa teatrlar uchun ibrat va ijodiy mayoq vazifasini o'tadi. Bularning ichida B.Vasilev asari asosidagi "Ro'yxatlarda yo'q" va Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" pesasi asosidagi spektakllarni alohida ta'kidlamok lozim. Beg'ubor kulgu, quyma milliy obraz va topilmalar, biri biridan jonli va puxta sahnalar, bir nafas ham tomoshabinni befarq qoldirmaydigan harakat hamda aktyorlar ijrosining uzluksiz dinamikasi "Kelinlar qo'zg'oloni" spektaklining asosiy fazilatlar edi. Barcha aktyorlarning yuksak ijro mahorati hamda eng avvalo, buyuk aktrisa Zaynab Sadrievaning sahnadagi benazir yetakchilik salohiyati spektakl muvaffaqiyatining bosh omili bo'ldi... Sobiq sho'rolar tuzumi davrida san'at mafkuraviy qurol sifatida doimiy nazoratda va iskanjada edi. Senzura - yo hayot, yo mamot masalasini hal etguvchi nozir, bir guruh qo'g'irchoq "mutaxassislar" esa sog'lom fikrni bo'g'ishga fatvo to'qib berguvchi hakam bo'lgani yodimizda. Bahodir Yo'ldoshev o'n bir yil akademik teatrga bosh rejissyorlik qilib, haqiqat yo'lida ne-ne qaltis vaziyatlarga tushmadi, kimlar bilan olishib-talashmadi deysiz... Goh kelishib, yon berishga majbur bo'ldi, masala o'ta keskin bo'lganida esa mulohazaga bormay kurashdi. 1983 yili Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani asosida shu nomda spektakl qo'rganida, temuriyzoda Zahiriddin Bobur siymosini sahnaga olib chiqqani uchun Markazqo'mdagi "Mafkuraxonim"ning qanchalar jazavaga tushib, spektaklni taqiqlagani va bu asar Bahodir Yo'ldoshevning otaxon teatr sahnasidagi so'nggi spektakllaridan bo'lib qolgani ko'pchilikka ayon. Markazqo'm "sopini ham o'zidan chiqarish"ga odatlangan edi. Binobarin, Bahodir aka bir suhbatda ta'kidlaganidek, "Oltmish kishilik teatr truppasida doim o'n besh kishi faol ishlaydi. Baloga qoladigan ham shular". Qolganlari esa kuzatuvchi. Vaqt o'tgan sari kuzatuvchilik alamga aylana boradi. Alamzadalarga ozgina turtki berilsa bas - g'iybat bilan boshlangan norozilik dahanaki jang, fitna va ommaviy xatbozliklar bilan avj darajasiga

ko'tariladi. "Yuqori"ga ham bo'ysunmas, sarkash bosh rejissyordan qutulish uchun shuning o'zi kifoya. San'at taqdiri bilan bog'liq masala shu qadar jo'n va aqlsizlik bilan hal etilar edi. Shunday vaziyat taqozosi o'laroq truppadagi ma'naviy muhit keskin buzildi. G'iybatu fitna-fasod respublika matbuotiga chiqib, teatr yuzidan parda ko'tarildi. Bahodir Yo'ldoshevning teatrni tark etishdan boshqa chorasi qolmadi. U firqa majlisiga tupurganicha, temurona zalvor va mahobat bilan teatrdan chiqib ketdi... 1983 yili Hamza teatridan Bahodir Yo'ldoshev, uning ortidan rassom Georgiy Brim va yana 25 nafar taniqli aktyorning ketishi bu akademik teatr truppasining ikkiga bo'linishigina emas edi. Ayni choqda o'zbek teatr san'atining puturdan ketishi, tanazzul tomon ilk qadami edi. Chunki Hamza teatri O'zbekiston teatrlari uchun ma'naviy yetakchi, ijodiy barometr edi. Ijodiy mezonlar belgilangan-da, mazkur teatr spektakllarining saviyasi va ijro usullari nazarda tutilar, ularga taassub qilinlar, hamisha yuksak maqomda ko'rilar edi. Birdaniga shularning barchasiga darz ketdi. O'zbek teatr san'ati shunday qismatga ongli ravishda duchor etildi... Bahodir Yo'ldoshev ana shu qismat uchun ham butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. O'z-o'zini aybdor his qiladi: "Bosh rejissyor yo aktyorlarini yengib yashashi kerak, yo yemish bo'lib qolishi kerak. Vaqt o'tib, bilyapman - Hamza teatri qismati uchun men aybdor. Oxirigacha bosh rejissyor bo'lib qololmadim. Kesmadim. Bosh rejissyorning oddiy rejissyordan farqi - shafqatsizroq bo'lishi kerak ekan". Bahodir bosh rejissyorlik rutbasi va mas'uliyatini teranroq anglab, shu mavqeda yangidan ish boshlaganida, yana ne-ne fitna va xiyonatlarga duch kelishini xayoliga ham keltirmagan edi. Ammo endi bu bo'lak bir tarix...

References:

1. www.ziyo.uz electron kutubxonasi
2. „O'z milliy an'analarimizga asoslanib, milliy xarakterlarni yaratish kerak“ (19-yanvar 2011-yil). Qaraldi: 28-may 2012-yil.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil